



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 19 - yanvar

42-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Sho‘rchi tumani “Qoraariq” mahallasi hududidan maktab binosi qurilishi uchun  
yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan, “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi 2023-yil 22-dekabrda 01-06/2017-sonli xatini hamda “YERELEKTRON” AATga A1722226023/2 ID raqami bilan kiritilgan yer uchastkasiga tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan xulosalarni inobatga olib,

**Q A R O R   Q I L A M A N:**

1. Sho‘rchi tumani “Qoraariq” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 4318q-konturidan qo‘shimcha 0,20 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni yangi zamonaviy tipdagi maktab binosi qurilishi uchun tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdiraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

4. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e‘lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Amirov

zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyat hokimi**



**U.B.Qosimov**